

JAMOAT XAVFSIZLIGIGA SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK TAXDIDLARNING OLDINI OLİSH BO`YICHA EKOLOGIK TALABLAR

Nurmatov Dilshodjon Tursunmurod o`g`li

O`zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi universiteti

Tel.raqam: 91 691 20 44

Email: dilshodjonnurmatov2@gmail.com

Kalit so`zlar: profilaktik tadbirlar, tizimli monitoring, kasallik profilaktikasi, parazitologiya, davlat sanitarij nazorati, jamoat salomatligi, Sanitariya-gigiyenik tadbirlar, elektron hukumat, Gen texnologiyalar markazi, Biologik xavfsizlik markazi.

Annotatsiya: ushbu maqolada, jamoat xavfsizligi sanitariya-epidemiologik taxdidlari haqida ularning oldini olish haqida so`z yuritildi. Shu bilan birga Sanitariya-epidemiologic osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati, qarorlar hamda amalga oshirilayotgan ishlar haqida malumot qayd etildi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-iyuldagagi “Koronavirus pandemiyasini yumshatish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va salomatligini saqlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6035-son **Farmoniga** muvofiq: O`zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining (keyingi o‘rinlarda — Sanitariya-epidemiologiya xizmati) asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilandi, ular :sanitariya-epidemiologiya sohasida potensial xavf-xatarlarni aniqlash, baholash, respublika hududidagi yuqumli kasalliklar tabiiy o‘choqlari ustidan epidemiologik monitoring va epidemiyaga qarshi profilaktik tadbirlar majmuuni amalga oshirish; sanitariya-gigiyena, radiatsion gigiyena, fizik omillar, bakteriologiya, virusologiya, parazitologiya va o‘ta xavfli kasalliklar tashxisi bo‘yicha laboratoriylar faoliyatini yo‘lga qo‘yish; inson salomatligiga ta’sir etuvchi xavfli omillarni boshqarish, tizimli monitoringini olib borish va tahlil qilishning yangi shakl va usullarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish; jamoat salomatligi va kasalliklar profilaktikasi hamda aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligiga doir davlat siyosatini samarali amalga oshirish, mazkur yo‘nalishda davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatini muvofiqlashtirish; jamoat salomatligi va kasalliklar profilaktikasi hamda aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligiga oid fundamental va ilmiy-amaliy tadqiqotlar amalga oshirish, bu boradagi ilmiy izlanishlarni muvofiqlashtirish, soha mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish; oziq-ovqat xavfsizligi sohasida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish va ular bilan hamkorlik qilish, oziq-ovqat xomashyosi va iste’mol mahsulotlarini ishlab chiqarish, tashish, saqlash va sotish

faoliyati ustidan belgilangan tartibda nazorat qilish; sohaga oid davlat va boshqa xizmatlarni ko'rsatish, mahsulot, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga qo'yiladigan majburiy talablarga taalluqliligi bo'yicha maxsus ekspertizalar tayinlash va o'tkazish; sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining tibbiy madaniyatini oshirish va tibbiy profilaktika bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda ularning amalga oshirilishini ta'minlash; shular jumlasidan.

Sanitariya-epidemiologiya xizmati va uning tizimidagi tashkilotlar o'ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish doirasida quyidagi huquqlarga ega:

a. karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar paydo bo'lishi hamda tarqalishi sharoitida epidemiyalarga qarshi kurashish qoidalarni buzishga oid huquqbazarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan tegishli tibbiy asoslar mavjud bo'lgan taqdirda karantinda saqlash yoki davolanish tarzidagi tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash;

b. yuqumli va parazitar kasalliklar tarqalishining oldini olishga qaratilgan, xo'jalik faoliyati va boshqa faoliyatning alohida tartibini, aholi, transport vositalari, yuklar va (yoki) tovarlar harakatlanishining cheklanishini nazarda tutadigan tibbiy-sanitariya chora-tadbirlarini amalga oshirish;

c. inson hayoti va salomatligi uchun jiddiy xavf tug'diruvchi yuqumli kasalliklar tarqalishi yoxud texnogen yoki tabiiy xususiyatga ega halokat sodir bo'lishi real xavfi vujudga kelganda mulkchilik shaklidan qat'iy nazar obyektlarda tekshirishlar o'tkazish;

d. sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari buzilganligi aniqlangan holatlarda litsenziyalar va ruxsat beruvchi hujjatlarni to'xtatib turish, tugatish va bekor qilish masalalarini hal qilish yuzasidan tegishli organlar va tashkilotlarga taqdimnomalar yuborish;

aholining sanitariya – epidemiologic osoyishtaligi — aholi sog'lig'ining holati bo'lib, bunda insonga yashash muhiti omillarining zararli ta'siri mavjud bo'lmaydi va uning hayot faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar ta'minlanadi;

davlat sanitariya nazorati — aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risidagi qonunchilik buzilishlarining oldini olishga, ularni aniqlash va bartaraf etishga doir faoliyat

insonning yashash muhiti — insonning hayot faoliyati shart-sharoitlarini belgilaydigan obyektlar, hodisalar va atrof-muhit omillari majmui;

sanitariya-gigiyena tadbirlari va epidemiyaga qarshi tadbirlar — yuqumli va parazitar kasalliklar paydo bo'lishining hamda tarqalishining oldini olishga va ularni bartaraf etishga qaratilgan tashkiliy, ma'muriy, muhandislik-texnik, tibbiy-sanitariya chora-tadbirlari hamda boshqa chora-tadbirlar;

sanitariya-epidemiologik vaziyat — aholi yashayotgan muhitining va sog'lig'ining muayyan hududdagi, ko'rsatilgan aniq vaqtidagi holati;

sanitariya-epidemiologiya xizmati — aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi sohasidagi faoliyatni amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati, uning tuzilmasiga kiruvchi hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo‘limlari va tashkilotlarini o‘z ichiga olgan yagona tizim;

cheklovchi tadbirlar (karantin) — yuqumli va parazitar kasalliklar tarqalishining oldini olishga qaratilgan, xo‘jalik faoliyati va boshqa faoliyatning alohida tartibini, aholi, transport vositalari, yuklar va (yoki) tovarlar harakatlanishining cheklanishini nazarda tutadigan ma’muriy, tibbiy-sanitariya chora-tadbirlari va boshqa chora-tadbirlar;

yuqumli va parazitar kasalliklar — insonga u yashayotgan muhitning biologik omillari ta’sir ko‘rsatishi hamda kasallikka chalingan insondan yoki hayvondan sog‘lom insonga kasallik yuqishi mumkinligi sababli paydo bo‘ladigan va tarqaladigan inson kasalliklari.

O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati to‘g‘risidagi NIZOM

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati (keyingi o‘rinlarda — Sanitariya-epidemiologiya xizmati) maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari, javobgarligini, faoliyatini tashkil etish va hisobot berish tartibini, shuningdek, uning rahbarlarining funksional vazifalari va mas’uliyatini belgilaydi.

2. Sanitariya-epidemiologiya xizmati aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va jamoat salomatligi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish uchun javobgar bo‘lgan vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

3. Sanitariya-epidemiologiya xizmati o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasi** va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, shuningdek, ushbu nizomga va boshqa qonun hujjaligiga amal qiladi.

4. Sanitariya-epidemiologiya xizmati va uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmalari, tuman (shahar) sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limlari, shuningdek, uning tarkibiga kiradigan tegishli idoraviy mansub tashkilotlar yuridik shaxs hisoblanadi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va blankalarga, mustaqil balansga, Moliya vazirligida shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga, bank hisob raqamlariga, shu jumladan tijorat banklarida ochilgan xorijiy valyutadagi hisob raqamlariga ega bo‘ladi.

5. Sanitariya-epidemiologiya xizmatining o‘z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari davlat boshqaruvi organlari, xo‘jalik birlashmalari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, mulkchilik shaklidan qat’iy nazar boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari, shu jumladan fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

6. Sanitariya-epidemiologiya xizmati o‘z faoliyatini davlat organlari va tashkilotlari, nodavlat tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi, shuningdek, aholining sanitariya-epidemiologiya sohasidagi xalqaro va xorijiy tashkilotlarda belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi nomidan vakillik qiladi.

Sanitariya-epidemiologiya xizmatining vazifalari va funksiyalari

jamoat salomatligi va kasalliklar profilaktikasi hamda aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi sohasida yagona davlat siyosatini olib borish, davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

aholining sanitariya-epidemiologiya osoyishtaligi sohasida davlat boshqaruvi organlari va xo‘jalik birlashmalarining faoliyatini samarali muvofiqlashtirish va ular bilan hamkorlik qilishni ta’milash;

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga (SanQvaN) riona qilinishi bo‘yicha belgilangan tartibda tekshirishlar o‘tkazish va sanitariya-epidemiologiya sohasida qonun buzilishlar bo‘yicha ma’muriy javobgarlik choralarini belgilangan tartibda qo‘llash;

oziq-ovqat xavfsizligi sohasida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish va ular bilan hamkorlik qilish, oziq-ovqat xomashyosi va iste’mol mahsulotlarini ishlab chiqarish, tashish, saqlash va sotish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi obyektlar faoliyati, shuningdek, zarur xalqaro amaliyotlarni qo‘llash tajribasiga asoslangan standartlar talablariga riona qilish ustidan nazorat qilish metodologiyasini ishlab chiqish va joriy etishda ishtirok etish;

sohaga oid davlat va boshqa xizmatlarni ko‘rsatish, mahsulot, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga qo‘yiladigan majburiy talablarga taalluqliligi bo‘yicha maxsus ekspertizalar tayinlash va o‘tkazish;

yuqumli bo‘lmagan, yuqumli, parazitar kasalliklar yuzaga kelishi va tarqalishining oldini olishga qaratilgan epidemiyaga qarshi va sanitariya-gigiyenik tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

sanitariya-gigiyena, radiatsion gigiyena, fizik omillar, bakteriologiya, virusologiya, parazitologiya va o‘ta xavfli kasalliklar tashxisi bo‘yicha laboratoriylar faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

inson salomatligiga ta’sir etuvchi xavfli omillarni boshqarish, tizimli monitoringini olib borish va tahlil qilishning yangi shakl va usullarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish;

yuqumli va parazitar kasalliklar yuzaga kelishi va tarqalishining oldini olishga qaratilgan profilaktik dezinfeksiya, dezinseksiya, deratizatsiya tadbirlari o'tkazilishini tashkil qilish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

sanitariya-epidemiologiya va jamoat salomatligini ta'minlash sohasida potensial xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va boshqarish jarayonida xavf-xatarlarni tahlil qilish va ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi siyosatni amalga oshirishga ko'maklashish;

O'zbekiston Respublikasi hududida o'latning tabiiy o'choqlari epizootologik monitoringini olib borishni, o'lat va o'ta xavfli infeksiyalar bo'yicha epidemiologik nazorat hamda profilaktik va epidemiyaga qarshi kompleks tadbirlar amalga oshirilishini tashkil etish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish; shukabilardaniborat.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasini davlat tomonidan tartibga solish

Jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimi jamoat xavfsizligini ta'minlovchi va unda ishtirok etuvchi subyektlardan iborat. Jamoat xavfsizligini ta'minlovchi subyektlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Bosh prokuratura, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan iborat. Boshqa davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolar jamoat xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etuvchi subyektlarga kiradi.

Ta'kidlanishicha, **Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati**, uning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlari tashkil etilishi munosabati bilan Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik agentligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanitariya-epidemiologiya nazorati davlat inspeksiysi va ularning hududiy bo'linmalari tugatildi. Davlat rahbarining tegishli qaroriga asosan Sanitariya-epidemiologiya xizmati va uning tizimidagi tashkilotlar, jumladan, karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar paydo bo'lishi hamda tarqalishi sharoitida epidemiyalarga qarshi kurashish qoidalalarini buzishga oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan tegishli tibbiy asoslar mavjud bo'lgan taqdirda karantinda saqlash yoki davolanish tarzidagi tibbiy yo'sindagi **majburlov chorasini qo'llash huquqi berildi**. Shu bilan birga, Sanitariya-epidemiologiya xizmati aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va jamoat salomatligi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish uchun javobgar bo'lgan **vakolatlidavlat boshqaruvi organi hisoblanib**, Sog'liqni saqlash vazirligi tarkibiga kiradi.

Shuningdek, qaror bilan Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitar kasalliklar ilmiy-amaliy tibbiyat markazi huzurida yuridik maqomiga ega bo'limgan **Biologik xavfsizlik markazi** hamda Gen

texnologiyalari markazi va Sanitariya-epidemiologiya xizmati markaziy apparati va uning hududiy bo‘linmalarida tegishlicha **Sog‘liqni saqlash ko‘rsatkichlari tahlili va istiqbolni belgilash markazi** va uning bo‘linmalari tashkil etildi. Bundan tashqari, xavfni tahlil qilish mexanizmini joriy qilish uchun **nazorat ostidagi ob’ektlarning yagona elektron базаси** yaratiladi va 2021 yil 1 yanvardan boshlab to‘liq ishga tushiriladi hamda «**Elektron hukumat**» tizimiga integratsiya qilinadi. Sanitariya-epidemiologiya xizmatining tibbiyat, sanitariya-epidemiologik va boshqa xodimlariga koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish tadbirlariga jalb etilgan davrda ularning oylik lavozim maoshiga 6 foiz miqdorida har kunlik qo‘srimcha to‘lovlar to‘lanadi. **2021 yil 1 yanvardan boshlab** Sanitariya-epidemiologiya xizmati xodimlarining amaldagi oylik ish haqlariga qo‘srimcha ravishda Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo‘lganda lavozim maoshiga — **30 foiz**, fan doktori (DSc) ilmiy darajalariga ega bo‘lganda — **60 foiz har oylik ustamalar belgilanadi**. Sanitariya-epidemiologiya xizmati Davlat byudjetidan tizimga ajratilgan mablag‘lar, ularning sarflanish yo‘nalishlari, samaradorlik natijalari yuzasidan ma’lumotlarni har oy yakuni bo‘yicha jamoatchilikka e’lon qiladi va o‘zining rasmiy veb-saytida joylashtirib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.07.2020 yildagi PQ-4790-son
- 2) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.11.2021 yildagi PF-27-son
- 3) T.Ergashev A. "Umumiylar ekologiya" Toshkent "O‘qituvchi" 2002
- 4) To‘xtayev A.S. Ekologiya. - "O‘qituvchi", 2001
- 5) Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati. 28 iyul 2020